

**VALYUTA BOZORINING SAMARALI ISHLASHI GLOBAL
IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM
OMILI SIFATIDA**

*O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti magiranti
Maxamadjonov Murodjon Narimon o'g'li*

Valyuta bozorlari - bu, talab va taklif asosida shakllanadigan kurs bo'yicha xorijiy valyutalarning milliy valyutaga oldi-sotdisi amalga oshadigan rasmiy markazlaridir. Turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslarining pullik qarz majburiyatlarini to'lovi bilan bog'liq xalqaro to'lov aylanmasiga valyuta bozori tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Keng ma'nodagi valyuta bozori - bu, xorijiy valyuta oldi-sotdisini amalga oshirish hamda xorijiy investorlar kapitallari harakati bilan bog'liq operatsiyalarda paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonidir.¹ Valyuta bozorida valyuta qimmatliklarining investorlari, sotuvchilari va sotib oluvchilari manfaatlarining kelishuvi amalga oshadi. Zamonaviy valyuta bozorlari XIX asrga kelib shakllandı. Bunga quyidagi omillar ko'maklashadi:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi;

- milliy valyuta tizimlari yuzasidan a'zo mamlakatlar zimmalariga ma'lum bir majburiyatlarni yuklovchi jahon valyuta tizimining barpo etilishi;
- xalqaro hisob-kitoblar kredit vositalarining kengayishi;

- bank kapitali to'planushi va markazlashuvining kuchayishi, turli mamlakatlar banklari o'rtasida vakillik munosabatlarining rivojlanishi, joriy vakillik hisobvaraqlarini xorijiy valyutalarda yuritilish amaliyotini kengayishi;
- valyuta bozorlari o'zaro aloqalarini soddalashtirish hamda kredit va valyuta xatarlari darajasini kamaytirish imkonini beruvchi telegraf, telefon, teleks singari aloqa vositalarining takomillashishi;

¹ A.A.Omonov, T.M.Qoraliev. "Pul, kredit va banklar". Darslik. TMI..Toshkent – 2012.489 bet

- axborot texnologiyalarining rivojlanishi, valyuta kurslari, banklar, ularning vakillik hisob raqamlarining holatlari, iqtisodiyot va siyosat borasidagi tendensiyalar haqidagi ma'lumotlarni katta tezlikda uzatilishi.

Milliy bozorlar va ularning o'zaro aloqalari rivojlanib borishi bilan jahon moliyaviy markazlarida jahonning yetakchi valyutalari uchun umumiylahon valyuta bozori shakllandi. Zamonaviy jahon valyuta bozorlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tafsiflanadi:

1) xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi, elektron aloqa vositalaridan keng foydalanish va ular orqali operatsiyalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish zaminida valyuta bozorlarining baynalmilallashuvi;

2) operatsiyalar navbati bilan jahonning barcha joylarida uzlusiz, sutka davomida amalga oshadi. Kalendar sutkalar hisobi soat poyaslarining Greenwich - Greenwich Meridian Time (GMT) orqali o'tadigan "0" raqamli meridianiga muvofiq valyuta bozoridagi faoliyat Yangi Zelandiya (Wellington)da boshlanadi va Sidney, Tokio, Gonkong, Singapur, Moskva, Frankfurt-Mayn, London, New-York hamda Los-Anjeles ketma-ketligidagi soat poyaslarini bosib o'tadi;

3) valyuta operatsiyalarining texnikasi soddallashtirilgan, hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshadi;

4) valyuta va kredit xavf-xatarlarini sug'urtlash maqsadida valyuta operatsiyalarining keng rivojlanishi. Bunda avval amalda bo'lган va bank balansida aks ettirilgan valyuta operatsiyalari balansdan tashqari hisobvaraqlarida hisobi yuritiladigan muddatli hamda boshqa turdag'i valyuta bitimlari bilan almashtiriladi;

5) chayqov va arbitraj operatsiyalari tijorat bitimlari bilan bog'liq valyuta operatsiyalaridan ko'p jihatdan ortiqdir, ular ishtirokchilarining soni keskin ko'payadi va o'z tarkibiga nafaqat bank hamda transmilliy korporatsiyalarni, balki boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni oladi;

6) kursi, xususiyatli birja tovariga o'xshab fundamental iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lмаган, o'zining tendensiyalariga ega bo'lган valyutalarning barqarorsizligi.

Jahon valyuta bozori eng kuchli va likvidli, ammo siyosiy hamda iqtisodiy yangiliklarga nihoyatda sezgir bozordir.

Xalqaro valyuta bozori - bu butun dunyo ishtirokchilari turli valyutalarni sotib olish va sotish bozori. Ishtirokchilar orasida banklar, korporatsiyalar, markaziy banklar, investitsiyalarni boshqarish firmalari, to'siq fondlari, chakana foreks brokerlari va investorlar bor. Xalqaro valyuta bozori muhim ahamiyatga ega, chunki u global operatsiyalarni, jumladan, kreditlar, investitsiyalar, korporativ xaridlar va global savdoni osonlashtirishga yordam beradi.

Xalqaro valyuta bozori dunyodagi eng yirik moliya bozori bo'lib, o'rtacha kunlik savdo hajmi 5 trillion dollarni tashkil etadi. Bu bozorda bitimlar bitta birjada emas, balki butun dunyo bo'ylab yirik banklar va brokerlarning global kompyuter tarmog'ida amalga oshiriladi.²

Valyuta bozori tashqi savdo natijasida zarur bo'lgan valyuta almashinuvini osonlashtirish uchun yaratilgan.

² <https://www.investopedia.com/>



1-rasm. Valyuta bozorining funksiyalari.³

Misol uchun, agar Kanada kompaniyasi AQSh firmasiga mahsulot sotsa, u Kanada dollarida to'lashni xohlaydi. AQSh firmasi Kanada kompaniyasiga to'lash uchun o'z banki orqali valyuta konvertatsiyasini osonlashtirishi kerak. AQSh firmasining bank hisobvarag'i AQSh dollarida yechib olinadi. AQSh banki mablag'larni Kanada kompaniyasining bankiga o'tkazar edi. Mablag'lar oldindan belgilangan kurs bo'yicha Kanada dollariga aylantiriladi va Kanada kompaniyasining hisobiga o'tqaziladi.

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari milliy va xalqaro iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Bankning valyuta operatsiyalari samaradorligi

³ Muallif tomonidan yaratilgan.

nafaqat bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga, balki mijozlar ehtiyojlarini qondirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashga ham ta'sir qiladi.


Valyuta operatsiyalarining asosiy turlari

Tijorat banklarida amalga oshiriladigan asosiy valyuta operatsiyalari:

1. Konversiya operatsiyalari:

Bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish (spot, forward, swap).

Xalqaro savdo va investitsiyalar uchun qo'llaniladi.



2-rasm. Valyuta kursi dinamikasi (USD).⁴

2. Depozit va kredit operatsiyalari:

Chet el valyutasida depozitlarni qabul qilish va kredit berish.

3. Xalqaro to'lovlar:


Akkreditiv, inkasso va bank o'tkazmalari orqali to'lovlarini amalga oshirish.

4. Valyuta risklarini boshqarish:

⁴ <https://cbu.uz/uz/>

Hedjing va boshqa moliyaviy instrumentlar yordamida risklarni minimallashtirish.

5. Investitsiya operatsiyalari:



3-rasm. Valyuta kursi dinamikasi (USD).⁵

Chet el valyutalarida aktivlarni sotib olish va sotish.

Valyuta operatsiyalari samaradorligini tahlil qilish bosqichlari

1. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish

Bankning valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromad va xarajatlarini baholash:

Daromadlilik ko‘rsatkichi:

$ROE = \text{Valyuta operatsiyalaridan daromad} / \text{Bankning o‘z kapitali}$

Xarajatlarning rentabelligi:

$\text{Rentabellik} = \text{Valyuta operatsiyalaridan daromad} / \text{Valyuta operatsiyalariga sarflangan xarajatlar}$

⁵ <https://cbu.uz/uz/>



4-rasm. Valyuta kursi dinamikasi (USD).⁶

2. Operatsion samaradorlikni tahlil qilish

Transaksion xarajatlar: Har bir operatsiyani amalga oshirish uchun sarflanadigan mablag‘ni tahlil qilish.

Muddati: Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ketgan vaqtning o‘lchash va tahlil qilish.

3. Risklarni baholash va boshqarish samaradorligi

Valyuta risklarini boshqarish: Valyutalar kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan yo‘qotishlarning oldini olish uchun hedjing strategiyalarining samaradorligini o‘rganish.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, valyuta bozori va valyuta operatsiyalarining xususiyatlari, xalqaro moliya tizimi va iqtisodiy jarayonlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Valyuta bozorining samarali ishlashi global iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu bozor orqali valyutalar almashinuvini amalga oshirish, savdo va investitsiya operatsiyalarini qo’llab-quvvatlash, xalqaro to’lov tizimlarini tezlashtirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish mumkin.

⁶ <https://cbu.uz/uz/>